


**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI-
NING CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI**
(2019-yil yanvar-
iyul*)

**Hududlar
kesimida
chakana savdo
tovar aylanmasi
hajmi**
(mlrd. so'm)


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-iyul oyida chakana savdo tovar aylanmasi 84 826,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 13 355,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 30,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tovar aylanmasi 71 471,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 8 970,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,2 % ga kamaygan) tashkil etdi.



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm, Buxoro, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

*-dastlabki ma'lumotlar


Chakana savdo tovar aylanmasining o'rish sur'atlari, %



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,3 % ga o'sdi va 13 355,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 15,7 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 71 471,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 3,0 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,3 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %



Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, %



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qashqadaryo (96,8 %), Jizzax (90,8%), Toshkent (90,3 %) Surondaryo (89,5 %) va Namangan (88,2 %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (27,1 %), Xorazm viloyatida (23,9 %), va Buxoro viloyatida (15,4 %) kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	13 355,0	130,3	71 471,4	103,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	366,2	150,5	2 512,7	104,4
<i>viloyatlar:</i>				


	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
Andijon	822,7	130,7	5 545,6	102,6
Buxoro	794,4	140,6	4 349,0	103,3
Jizzax	277,2	144,8	2 726,1	105,0
Qashqadaryo	167,5	40,3	5 047,1	107,5
Navoiy	450,4	188,5	2 865,9	101,9
Namangan	598,0	150,5	4 466,9	102,6
Samarqand	1 029,9	169,5	6 247,1	102,9
Surxondaryo	529,6	130,2	4 510,4	104,2
Sirdaryo	206,7	224,1	1 378,1	102,2
Toshkent	930,1	98,9	8 657,4	106,3
Farg`ona	875,2	122,9	5 809,2	102,5
Xorazm	855,0	155,3	2 714,8	104,7
Toshkent sh.	5 452,1	128,7	14 641,2	99,6

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining respublika chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




Mulkchilik shakli
bo'yicha
chakana savdo
tovar aylanmasi
ulushi, %

2018-yil
yanvar-iyul




2019-yil
yanvar-iyul



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Chakana savdo
tovar
aylanmasida
mulchlik
shakllarining
ulushi, %



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	84 826,4	84 661,5	164,9
Qoraqalpog`iston Respublikasi	2 878,9	2 878,0	0,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	6 368,3	6 364,5	3,8
Buxoro	5 143,4	5 141,4	2,1
Jizzax	3 003,3	3 001,2	2,0
Qashqadaryo	5 214,6	5 213,2	1,4
Navoiy	3 316,3	3 288,9	27,4
Namangan	5 064,9	5 062,7	2,2
Samarqand	7 277,0	7 275,6	1,4
Surxondaryo	5 039,9	5 038,8	1,1
Sirdaryo	1 584,8	1 584,8	-
Toshkent	9 587,5	9 584,3	3,1
Farg`ona	6 684,4	6 684,4	0,0
Xorazm	3 569,8	3 569,2	0,6
Toshkent sh.	20 093,3	19 974,5	118,9

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yil yanvar-iyul oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan respublikamizning barcha hududlarida (Qashqadaryo (100,0 %) viloyatidan tashqari) o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni boshqa hududlar bilan solishtirganda eng yuqorisi Toshkent shahri (7 960,3 ming so`m), Navoiy (3 373,6 ming so`m) va Toshkent (3 297,2 ming so`m) viloyatlari hissasiga to'g'ri

keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.


2019 yil yanvar-iyul holatiga o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 540,5 ming so`m (o`tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 4,5 % ga o`sgan). Ushbu ko`rsatkich respublika hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O`zbekiston Respublikasi	2 540,5	104,5
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 534,7	107,0
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 069,1	103,6
Buxoro	2 706,1	106,0
Jizzax	2 210,1	105,5
Qashqadaryo	1 616,1	100,0
Navoiy	3 373,6	106,9
Namangan	1 832,0	104,5
Samarqand	1 907,0	106,7
Surxondaryo	1 951,8	104,1
Sirdaryo	1 901,6	108,0
Toshkent	3 297,2	104,1
Farg`ona	1 808,0	102,9
Xorazm	1 938,9	111,6
Toshkent sh.	7 960,3	104,0

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Shuningdek, 2019-yilning yanvar-iyul oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,0 % ni tashkil etib, 2 533,0 mlrd. so'mga yetdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o'sdi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,9 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.



Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %


2018-yil yanvar-iyul

2019-yil yanvar-iyul



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %



Mulkchilik shakllari bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
O'zbekiston Respublikasi	2 532 983,0	2 407 511,0	125 472,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	91 771,0	91 615,5	155,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	77 874,1	77 874,1	-
Buxoro	184 826,0	184 788,0	38,0
Jizzax	64 511,0	64 307,0	204,0
Qashqadaryo	114 488,0	114 288,8	199,2
Navoiy	88 136,7	79 518,4	8 618,3
Namangan	81 022,9	80 508,8	514,1
Samarqand	181 754,7	181 120,0	634,7
Surxondaryo	108 719,3	108 368,8	350,5
Sirdaryo	30 228,8	30 228,8	-

	Jami (mln. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so`m)	davlat mulki (mln. so`m)
Toshkent	261 865,3	261 026,4	838,9
Farg`ona	112 775,5	112 773,9	1,6
Xorazm	52 360,4	51 969,2	391,2
Toshkent sh.	1 082 649,3	969 123,3	113 526,0


**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASIN
ING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI**

(2019-yil yanvar-
iyul*)

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 44 072,1 mlrd. so`mni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o`sgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-iyul oyi yakunlariga ko`ra, 31 146,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 % ga o`sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 70,7 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda, Toshkent shahrida (82,3%), Farg`ona (78,7 %), Samarqand (69,3%) va Andijon (66,8 %) viloyatlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %**



*-dastlabki ma'lumotlar

Yirik korxonalar
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 29,3 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Navoiy (57,3 %) va Toshkent (54,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %
O'zbekiston Respublikasi	44 072,1	106,5	12 926,1	109,9	31 146,0	105,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 027,3	117,2	464,8	145,0	562,5	101,2
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 521,0	104,2	504,8	107,4	1 016,1	102,7
Buxoro	1 329,0	100,5	490,3	95,3	838,7	103,8
Jizzax	1 279,1	118,4	620,5	145,4	658,7	100,8
Qashqadaryo	1 560,5	95,9	641,9	86,7	918,6	103,5
Navoiy	1 339,6	108,0	767,0	110,0	572,6	105,5
Namangan	1 249,6	106,2	623,9	111,2	625,7	101,6
Samarqand	3 176,3	109,6	976,7	129,6	2 199,6	102,6
Surxondaryo	1 341,7	101,0	430,3	90,6	911,5	106,7
Sirdaryo	857,6	99,4	334,8	93,6	522,8	103,6
Toshkent	4 018,4	94,2	2 202,2	87,9	1 816,1	103,3
Farg'ona	2 930,9	109,2	623,3	111,0	2 307,5	108,7
Xorazm	1 128,0	111,9	477,7	119,9	650,3	106,7
Toshkent sh.	21 313,0	109,4	3 767,9	126,3	17 545,1	106,4

Mulkchilik shakli
bo'yicha
ulgurji savdo
tovar aylanmasi
ulushi, %

2018-yil
yanvar-iyul




2019-yil
yanvar-iyul



Davlat mulki
 Nodavlat mulki

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi
bo'yicha mulchlik shakllarining ulushi, %




Davlat mulki
 Nodavlat mulki

**Mulkchilik shakllari bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mlrd. so`m)	davlat mulki (mlrd. so`m)
O`zbekiston Respublikasi	44 072,1	44 027,1	45,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	1 027,3	1 027,3	-
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 521,0	1 520,5	0,5
Buxoro	1 329,0	1 329,0	-
Jizzax	1 279,1	1 279,1	-
Qashqadaryo	1 560,5	1 560,5	-
Navoiy	1 339,6	1 339,0	0,7
Namangan	1 249,6	1 249,6	-
Samarqand	3 176,3	3 176,3	-
Surxondaryo	1 341,7	1 341,7	0,1
Sirdaryo	857,6	857,6	-
Toshkent	4 018,4	4 017,3	1,1
Farg`ona	2 930,9	2 930,9	-
Xorazm	1 128,0	1 128,0	-
Toshkent sh.	21 313,0	21 270,3	42,7

Joriy yilning yanvar-iyul oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 44 072,1 mlrd. so`mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 44 027,1 mlrd. so`mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 45,0 mlrd.so`mni tashkil etdi. Ko`rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, respublika ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Toshkent sh. 48,4 %, Toshkent 9,1 %, Samarqand 7,2 %, Farg`ona 6,7 % viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Toshkent (94,2 %), Sirdaryo (99,4 %), Qashqadaryo (95,9 %) va Buxoro (100,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel.:71-230-80-42 (43)**